

Qurilish sohasidagi nazorat inspeksiyasi sohasidagi korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan ishlar

Bundan tashqari, Qurilish sohasidagi nazorat inspeksiyasi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi "Qurilish sohasiga axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4464-sonli qaroridan kelib chiqib, qurilish Obyektlarini nazorat qilish jarayonlarida korrupsiya omillarini kamaytirish va shu jarayonlarning shaffofligini ta'minlash uchun, Komplaens xizmati, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzurida Qurilish sohasida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimining "Qurilishdagi nazorat" quyi tizimi ishlab chiqildi va 2021 yildan qurilish sifatini nazorat qilish bo'yicha real vaqt rejimida butun respublika hududiga joriy qilindi.

Obyektlarda qurilish-montaj ishlarini nazorat qilishda inspektorlar 266 ta zamonaviy planshet qurilmalari bilan ta'minlandi.

Hozirda "Qurilishdagi nazorat" tizimi orqali Respublika bo'yicha 32800 nafar foydalanuvchi nazorat faoliyatini yuritmoqda. Bular: 13400 ta buyurtmachilarning texnik nazoratchilari, 4400 ta mualliflik nazorati, 15000 ta pudratchilarning ichki nazoratchilari va inspektorlar.

Bugungi kunda buyurtmachi, loyihachi va pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish Obyektlarida 51800 ta qoidabuzarlik aniqlandi va tizimga fotofaktlari bilan kiritildi.

"Qurilish nazorati" tizimi to'liq joriy etilishi natijasida nazorat jarayonidagi inson omili keskin qisqarishi kutilmoqda, ya'ni aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan rasmiylashtiriladigan hujjatlar onlayn tizimda bo'lib, inspektor, texnik nazoratchi, mualliflik nazorati va pudratchilar o'rtasidagi hujjat almashuvi masofadan amalga oshiriladi, hamda mazkur harakatlar Obyekt, tuman va viloyatlar kesimida masofadan turib nazorat qilinadi.

Komplaens xizmati xodimlari o'tkazgan o'rganish tadbirlari natijasida 2020 yil dekabr oyida 1605 ta Obyektda (jami kelib tushgan xabarnomalarning 52,1% ni tashkil etadi) buyurtmachilar hududiy inspeksiyalarini xabardor qilmasdan, qurilish-montaj ishlarini boshlab yuborgani aniqlandi.

2021 yil 1 yarim yillik davrida esa, Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalarga 8161 ta qurilish-montaj ishlarini boshlash to'g'risida xabarnomalalar yuborilgan bo'lib, o'tkazgan o'rganish tadbirlari natijasida 3974 ta Obyektda (jami kelib tushgan xabarnomalarning 48,7 % ni tashkil etadi) buyurtmachilar hududiy inspeksiyalarini xabardor qilmasdan, qurilish-montaj ishlarini boshlab yuborgani aniqlandi.

Qurilish ishlarini boshlash to'g'risida hududiy inspeksiyalariga kelib tushgan xabarnomalalar bo'yicha o'tkazilgan o'rganish ishlari natijasida, Komplaens xizmati xodimlari tomonidan respublika bo'yicha o'tgan davr mobaynida jami 8161-ta ehtimoliy korupsion holat oldi olindi va aniqlangan qonun buzilish holatlari bo'yicha ma'lumotlar Hududiy inspeksiya rahbarlariga taqdim etilib, Obyekt buyurtmachilariga nisbattan ma'muriy javobgarlik to'g'risida bayonnomalar tuzish va binolarning qurib qo'yilgan qismi bo'yicha instrumental texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar

berildi va Inspeksiyaning Qurilish-montaj ishlari ustidan nazorat bo'limiga mazkur ishlarni nazoratga olish bo'yicha topshiriqlar berildi.

2020 yil dekabr oyida davomida Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalarga 1730 ta qurilishi tugallangan Obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha murojaatlar kelib tushgan.

Inspektorlar, Komplaens xizmati xodimlari nazorati ostida o'tkazilgan o'rganish ishlari natijasida 1241 ta Obyekt (71,7%) foydalanishga tayyor holda emasligi ma'lum bo'ldi, bu yerda 481 ta Obyektda (27,8%) ijro hujjatlari yuritilmagan va sinov ishlari amalga oshirilmagan, hamda 760 ta Obyektda (43,9%) qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilmagan.

2021 yil 1 yarim yillik davrida, Qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyalarga 7833 ta qurilishi tugallangan Obyektlarni foydalanishga qabul qilish bo'yicha murojaatlar kelib tushgan.

Inspektorlar, Komplaens xizmati xodimlari nazorati ostida o'tkazilgan o'rganish ishlari natijasida 2928 ta Obyekt (37,4%) foydalanishga tayyor holda emasligi ma'lum bo'ldi, bu yerda 2428 ta Obyektda (31,0%) ijro hujjatlari yuritilmagan va sinov ishlari amalga oshirilmagan, xamda 5356 ta Obyektda (68,4%) qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilmagan.

Komplaens xizmati tomonidan amalga oshirilgan o'rganish va tadbirlar natijasida ish jarayonida yo'l qo'yilgan qonunbuzilish holatlari bo'yicha respublika bo'yicha 43 Hududiy inspeksiya xodimlariga intizomiy choralar ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentyabrdagi PQ-4464-sodan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 8 fevraldagagi 69-sodan qarorlariga muvofiq Qurilish sohasida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish markazining xodimlar umumiyligi cheklangan soni 25 nafardan iborat bo'lgan tuzilmasi tasdiqlanib, ish faoliyatini boshladi.